



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCE.UZ

30 APRIL  
№27

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
8-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-8**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 25 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

<b>1. Usarova Dilafruz Saloxiddinovna</b>	
O'QISH DARSLARINI TASVIRIY SAN'AT BILAN BOG'LAB OLIB BORISH TA'LIM SAMARADORLIGI OMILIDIR .....	7
<b>2. Umrzaqova Dildora iskandar qizi, Mutalibova Mohichehra Ahmadali qizi, Tursunova Shohista Murodiljon qizi</b>	
BADIIY IJODDA DETALLAR FUNKSIONALLIGI VA DINAMIKLIGI.....	9
<b>3. Ergasheva Saida Komilovna</b>	
ABDULLA ORIPOVNING ANTITEZALARDAN FOYDALANISH MAHORATI.....	11
<b>4. Qulmurodova Shahodat Saparovna</b>	
ADIB CHO'LPON ASARLARIDA TASVIRIY IFODALARNING QO'LLANILISHI.....	13
<b>5. Dilnoza Murotova Otobek qizi</b>	
ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDA AYOL OBRAZI.....	15
<b>6. Sayitqulova Zilola Husniddin qizi</b>	
CHO'LTONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDAGI MIRYOQUB OBRAZI.....	17
<b>7. Юнусова Шохиста Равшановна</b>	
АДАБИЙ КОМПЕТЕНТЛИЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР .....	19
<b>8. Masharianova Qlara Raximovna</b>	
ADABIYOT DARSLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI .....	21
<b>9. Nuriddinova Nozima Avazxonovna, Rustamova Lobarxon Ibragimovna</b>	
ABDULLA ORIPOV - NOYOB ISTE'DOD EGASI .....	23



## АДАБИЁТ

### О'QISH DARSLARINI TASVIRIY SAN'AT BILAN BOG'LAB OLIB BORISH TA'LIM SAMARADORLIGI OMILIDIR

**Usarova Dilafruz Saloxiddinovna**

Navoiy viloyati Navoiy shahar  
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon:+998 934306393

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tasviriy san'at fani bilan bog'lab olib borish o'quvchilarning o'tilgan mavzularni o'zlashtirishida, ularni vatanparvarlik, ekologik va nafosat ruhida tarbiyalashda muhim muhim ahamiyat kasb etishi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qish darsliklari, dars jarayoni, fanlararo bog'lanish, matnlar, rasmlar, tasvirlari, fasllar, asar, taassurotlari, ruhiy jarayon, rasmlar chizdirish.

Boshlang'ich ta'limga o'qish fanining fanlararo aloqadorligini barcha fanlarda ko'rishimiz mumkin. Chunki har bir fandan o'tiladigan mavzular yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajarishda dastlab o'qib chiqiladi, o'sha mavzu yuzasidan og'zaki hikoya qilinadi. Har bir fan mavzusini tushunish, bilish, tahlil, sintez, baholash uchun mavzu bo'yicha berilgan matnni o'qish kerak. O'qish darslarida ham mavzuni to'la o'zlashtirilishga erishishda boshqa fanlar materiallaridan foydalanish, yani dars jarayonini fanlararo bog'lanishda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qish darslarini ona tili, tasviriy san'at, musiqa, tabiatshunoslik, tarbiya fanlari bilan bog'liqlikda olib borish ta'limga samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Jumladan, o'qish darslarini tasviriy san'at fani bilan bog'lab olib borish zamонави та'limga texnologiyalaridan sanaladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darsliklarida berilgan turli she'r, hikoya, ertak, masal, ilmiy-ommabop matnlarni oddiygina o'qib chiqgandan ko'ra, ularga oid rasmlarni ko'rishlari yoki o'sha asarlarga oid o'z tasavvurlarida biror rasmni tasvirlashlari, bolalarni to'la o'zlashtirishlariga imkon beradi.

Masalan, 2-sinfda Orif To'xtashning "Vatan madhi" she'rini o'rganishda tasviriy san'at materiallaridan foydalanish o'quvchilarning ona-Vatanimiz O'zbekiston haqidagi tasavvurini kengaytirishda muhim o'rinn tutadi. Darsga O'zbekiston davlati tasvirlangan plakatlar, yurtimizning go'zal tabiat manzaralari, bog'-rog'lari, qir-adirlari, turli millat vakillari bolalarining birgalikdagi biror bir tadbirlarining tasvirlari namoyish etiladi. O'quvchilarga oldindan rasm daftari, rangli qalamlar olib kelishlari topshirilishi lozim. Darsda yangi mavzu yuzasidan barcha ta'limiyl ishlardan keyin darsning mustahkamlash qismida o'quvchilarga yurtimiz tabiatini, bog'lari, tog'lari tasvirini chizishlari uchun 10 daqiqa beriladi va o'qituvchi ularni ishlarini nazorat qilib turadi. Belgilangan vaqt tugagach, o'qituvchi o'quvchilarni chizgan rasmlarini ko'rib, ularni qanchalik tasavvur qilganliklarini aniqlaydi va rag'batlantirib chiqadi.

Yoki 3-sinf o'qish darsligidagi "Vatan himoyachisi" matnnini o'quvchilar o'qiydilar, ular Vatan himoyachilar-askarlar rasmini tomosha qilishlari mumkin. Askar rasmini chizishni o'sha darsning o'zida, ya'ni darsning mustahkamlash qismida amalga oshirish yoki uyga vazifa qilib berish mumkin.

K.D.Ushinskiy: "Bolalar asarni tushunishlari uchun uni sezishlari kerak. She'riy asarlarda juda ko'p narsa faqat his-tuyg'u orqali tushuntiriladi, uni faqat aqliy bilim bilan tushuntirish mumkin emas", -deb ta'kidlaydi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida bahor, yoz, kuz, qish fasllari hamda tabiat hodisalariga oid mavzularni o'tishda tasviriy san'at va tabiatshunoslik fani materiallaridan foydalanish bilan birgalikda o'quvchilarga yurtimizda fasllar ko'rinishi, Vatanimiz tabiat manzaralari tasvirini chizdirish o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda, shuningdek, ularga nafosat tarbiyasini berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, 2-sinf "O'qish kitobi"da Tursunboy Adashboyevning "Oltin kuz" she'ri, Qutlibeka



Rahimboyevaning "Kuz" hikoyasi va Eson Rahimovning "Kuz fasli" she'rini o'rganganish jarayonida o'qituvchi kuz fasliga oid rasmlarni bolalarga ko'rsatishi va ushbu darslarda o'qilgan she'r, hikoyadan olgan taassurotlari asosida rasm chizdirishni amalga oshirish ularda Vatanimizga, yurtimiz tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbatini oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarida taniqli rassomlarning tasviriy san'at asarlaridan foydalanish, o'quvchilarning o'qilgan asardan olgan taassurotlari asosida rasm chizdirish bolalarda umuminsoniy fazilatlarni shakllantiradi, bolaning ongida uning shaxsiy dunyosi, fikrlar va his-tuyg'ular olamining san'at bilan aloqasini mustahkamlaydi. Boshlang'ich ta'limning o'qish darslarida tasviriy san'atni uyg'unlashishini ta'minlash bolalarning adabiy asarlarni badiiy qabul qilishlariga yordam beradi.

Adabiy asarlarni badiiy qabul qilish asosan ruhiy jarayon bo'lib, bu jarayon bevosita san'at asari ta'sirida yuzaga keladi. O'qish darslarida turli asarlarga oid rasmlar chizdirish mumkin. Bu bilan o'quvchi asosan badiiy qabul qiladi. Badiiy qabul qilish faollikni talab qiladi va u bir necha bosqichda amalga oshadi:

1. Asarni o'qishdan oldin o'quvchi badiiy qabul qilishga tayyorlanadi.
2. Asarni o'qish va u bilan aloqaga kirishish.
3. Asarni tasavvurida chiqishga o'rganish.
4. O'qigan, chizgan asarlarini keyin ham xotirada saqlanishiga erishish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qish darslarida o'quvchilar bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini fanlararo aloqadorlikda olib borish yuqori natijalarga erishishning muhim omillaridan biridir.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Boshlang'ich sinf o'qish fani o'quv dasturi. 2017-yil.
2. 2-sinf "O'qish kitobi" darsligi. Toshkent-2018.
3. Amaldagi 3-sinf "O'qish kitobi" darsligi.
4. Elektron ta'lim resursi: [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)



## BADIY IJODDA DETALLAR FUNKSIONALLIGI VA DINAMIKLIGI

**Umrzaqova Dildora iskandar qizi**

Farg`ona davlat universiteti III bosqich talabasi  
umurzaqova1998@gmail.com Telefon:(90)3849858

**Mutalibova Mohichehra Ahmadali qizi**

Farg`ona davlat universiteti III bosqich talabasi  
Telefon:(90)2720374

**Tursunova Shohista Murodiljon qizi**

Farg`ona davlat universiteti III bosqich talabasi  
Telefon:(90)1609923

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada U.Hamdamning “Ota” romanidagi detallar funksionalligi va dinamikligi haqida so’z yuritiladi.

**Tayanch so’z va iboralar:** detal, funksiya, dinamika, obraz, vosita, emotsiya

Adabiyotshunoslikda yozuvchi qo’llagan detallarning u yoki bu funksiyalari haqida ko’p gapiriladi-yu, ularning eng muhim xususiyati-estetik qimmati, emotsiyalardan shunchaki tasviriy ifoda sifatida foydalanmaydi, u qo’llagan detallarda obrazlar harakteri, ularning bir-biriga munosabati, muallif konsepsiysi kabilarni ko’ramiz. Badiiy detallar tufayli adib asarlarining tili, o’ziga xosligi ta’minlanadi va ular kitobxonga kuchli emotsiyonallik bag’ishlaydi. Badiiy asar tili qanchalik sayqallangan bo’lsa, undagi ayrim kamchiliklar sezilmaydi. U o’zining mukammalligi va jozibasi bilan kitobxonga ta’sir kuchini oshiradi. V.Dobin “detal bu - uslub” deganida haqli edi. Bu haqida Fedin quyidagi fikrni keltiradi: “biz kompozitsiyasi yaxshi bo’lmagan, hatto kompozitsiyasi yomon bo’lgan yaxshi adabiy asarlarni bilamiz. Lekin tili yomon yaxshi adabiy asarning bo’lishi mumkin emas. Asarning barcha materiali, yozuvchining butun tajribasi tilda va til vositasida ifodalanadi.” U.Hamdamning asarlarida qo’llanilgan detallar obrazlarning ma’naviy dunyosi, dunyoqarashi, atrofdagi voqe-a-hodisalarga bo’lgan munosabati yaqqol ochib beriladi. Shu ma’noda, muallifning “Ota” romanidagi detallar masalasini yuqoridaq nazariy muammolar asosida tahlil qilamiz. Romanda detallar asosiy tasviriy vosita sifatida ishtirok etish bilan birga dinamiklikka ham erishgan: “Har galgidek, butun oilani “gah deya qo’liga qo’ndirgan”, ”o’ziga xon, ko’lankasi maydon” Oychechak opa, yoniga erini, o’n besh yildan beri tinoqqa zor o’g’li Po’lat-u, husnda tengsiz go’zal kelini Yog’duni olib, qanisan Toshkent-boshkent dedi-yu yo’lga tushdi”. Muallif Oychechak obraziga nisbatan ikki salbiy xususiyatni, bir ibora orqali ifodalaydi. “Gah deya qo’liga qo’ndirgan” iborasining o’ziyoq Oychechak obraziga nisbatan salbiy emotsiya uyg’otadi. Na erining, na og’lining va na kelinining xohishiga qarab ish qiluvchi Oychechak opa obrazi kitobxon tasavvurida salbiylasha boshlaydi. Oychechak opa nazdida “isonafas” bo’lgan domlaning uyida endigina odamlar hayotiga kirib kelayotga sirli quti-televizor detali va “ma’bud”ning undan ko’z uzmashligi toshdomla haqida salbiy emotsiya uyg’otadi. Chunki domla o’zidan shifo, ayrim masalalarda yechim izlab kelgan odamlar taqdirliga befarq, bemalolgina televizor ko’rish bilan band.

“Ota” romanida detallar funksionalligi masalasini tahlil etish uchun roman sujetiga murojaat etamiz. Muallif Po’latning ichki kechinmalarini ochib berishda qovjiragan o’simliklar va jo’jalarini ergashtirib kelib qolgan ona tovuqdan foydalanadi. “Po’lat pinagini buzmay, ko’zini lo’q qilgancha tomorqadagi yaproqlari uchidan qurib kelayotgan makkajo’xori, pomidor, kartoshka, piyoz-u boshqa shunga o’xhash har xil ekin-u ko’katlarga ma’nosiz boqib o’tirardi. Ana, er-u xotin umid bilan darvozaxona ro’parasiga erta ko’klamda birga ekishgan anvoyi gullar ham qovjiray boshlabdi. Po’lat hammasini sovuqqon kuzatardi. Ammo bu sovuqqonlik uning tashqi ko’rinishida edi,xolos. Aslida uning jismi sayoz joyga botib qolgan ulkan kemadek harakatsiz ko’ringani bilan ichida xalos bo’lish ishqida o’zini har tomoniga urayotgan po’rtanalar sodir bo’ladi. Bu po’rtanalar uni javobi yo’q savollar qoyasiga olib borib ayovsiz urar, olingan jarohatlardan Po’latning yuragida ulkan g’urralar paydo bo’lardi. Po’lat o’z hayotini qovjiragan, suvsizlikdan qurigan tomorqaga o’xshatmoqda. Avvaliga urushdan eson-omon qaytsa bo’ldi, baxt uni kutib turgandek edi go’yo. U Yog’du bilan ne-ne orzular ila turmush qurban, lekin mana o’n besh yildirki tinoqqa zor. Qurigan o’simliklarga suv qanchalik zarur bo’lsa,farzand



ham Po'lat va Yog'du uchun shunchalik kerak edi. Bolalarini ergashtirib shu atrofda paydo bo'lган ona tovuq esa Po'latning ezilgan yuragini yana-da ezdi. Po'lat ularga qarab o'yga toldi. Hayotning ma'nosи oila qurib bola ko'rishda, bolani oq yuvib, oq tarab elga qo'shishda degan yakuniy o'yini - shu chog'gacha yetib kelgan eng oliy xulosasini bir karra eslab ketti.

Detalning yana bir funksional ko'rinishini olov detali bilan bog'liq quyidagi jarayonda kuzatamiz. Po'latning hayotida shunday bir fofja ro'y berdiki, uning zulmati bir umrga tatidi. O'tkir akalarning uyiga o't ketdi. O't o'chiruvchilarning uyiga. O'tkir o't o'chiruvchi bilan Po'lat o't o'chiruvchining uyiga! "Xo'l-u quruq barobar yondi!" Uyga qo'shilib esa, yuraklar yondi, qismatlar yondi! Hammani bu tilsiz yovdan qutqarib kelayotgan Po'lat o'z qizini, ko'zining oq-u qorasini olovdan eson-omon olib chiqolmadi. Sevinchning, Po'latning, Yog'duning, Oychechak opaning, O'tkir akaning hayoti zulmatga aylandi shu olov sababli. Eng alamlisi bu olov o'z-o'zidan kelib chiqmagandi, uni kimdir xohlab qilgandi. Lekin buni o'ylashga, sababchisini qidirib topishga na Po'latda, na O'tkir akada xoshish bor edi. Fofja butun oilani g'am-tashvishlar, azoblar girdobida qoldirdi. Sevinchning esa guldek umri xazon bo'lishiga sabab bo'ldi. Hayoti davomida chandiq bilan odam ko'rsa seskanadigan yuz bilan yashashga majbur qildi bu olov. Muallif birgina olov detali orqali asar qahramonlari hayotini ostin-ustun qilib yubordi.

Shunday qilib, adibning "Ota" romanida detallar funksionalligi va dinamikligi o'ziga xos ravishda talqin etilgan bo'lib, voqealar rivojida va obrazlar shakllanishida asosiy vositalardan biri sifatida qo'llanilgan.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Adabiyot nazariyasi.- II tom.- Toshkent:Fan,1979
2. D.Quronov, Z. Mamajonov va M. Sheraliyeva "Adabiyotshunoslik lug'ati" - Toshkent: Akademnashr,2010



## ABDULLA ORIPOVNING ANTITEZALARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Ergasheva Saida Komilovna

Navoiy viloyati Karmana tumani

13-son maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada antiteziya tushunchasiga ta'rif berilgan, shuningdek Abdulla Oripov o'z ijodida antitezalardan mohirona foydalangani haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** antiteziya, antiteza, qarama-qarshilik, Abdulla Oripov, she'r, til.

Badiiy asar tilini o'rganish shoirlarning ijodkorlik mahoratini tadqiq qilish bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shoirlarning so'z tanlash mahorati, tasviriy vositalardan foydalanish san'ati badiiy asar tilini o'rganishning asosini tashkil qiladi. Badiiy asar tilini o'rganish uzoq tarixga ega. XX asrning 30-yillarida unga qiziqish kuchaydi. Keyinchalik rus va o'zbek tilshunosligida ham bu borada tadqiqotlar qilindi.

Ko'pincha nutqda keskin qarama-qarshi tushunchalar taqqoslanadi: sharaf-beparvolik, ish-dam olish va h.k. Bu tinglovchilar tasavvuriga alohida ta'sir ko'rsatadi, ularda nomlangan narsalar va hodisalar to'g'risida jonli g'oyalarni uyg'otadi. Ob'ektni yoki hodisani o'ziga xos tarzda tavsiflash uchun nafaqat boshqa ob'ekt yoki hodisa bilan o'xshashlik va birlashmalarni, balki bir-biriga qarshi turish uchun keskin qarama-qarshilik xususiyatlarini, farqlarni ham topish mumkin. Qarama-qarshi yoki keskin qarama-qarshi bo'lgan belgilar, holatlar, obrazlar, kompozitsion elementlar, tushunchalar, hodisa va belgilarni taqqoslashga asoslangan, keskin kontrastning ta'sirini yaratishi antiteziya deyiladi. Antiteziya nafaqat tushunchalarga qarshi turishga qodir, balki taqqoslash xususiyatlarini ob'ektga taqqoslaganda taqqoslashning paradoksalligini (oksymoronda bo'lgani kabi), ob'ektning buyukligini, universalligini ta'kidlaydi. Tilshunoslikda bunday zidlik ko'rinishlari antiteza va unga yondosh hodisalarda o'ziga xos ifoda kasb etadi. R.Qo'ng'uров shunday ta'riflagan: "Antiteza nutqda ifodalilikni kuchaytirish uchun logik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, predmetlarni va shaxslar xarakterini qiyoslash yoki birgina predmet yoki hodisalarning darajasi jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlashdir. Klassik adabiyotimizda antiteza tazod termini bilan yuritiladi".

Abdulla Oripov she'riyatida antiteza yaratishdagi mahorat ijodkor salohiyatini ko'rsatib berishda o'ziga xoslik kasb etadi. Ijodkor "Sendan yiroqda" she'rida ziddiyatlari, ruhiy holatlarni ko'rsatib berishda antitezalardan o'rinci foydalangan:

*Sening ezgu xayoling bilan*

**Tong yorishdi, quyosh ham botdi.**

*Va mening bu sevgi asiri*

*Yuragimda hislar uyg'otdi.*

Ushu misralarda tong yorishdi – quyosh ham botdi birikmali o'zaro antiteza hosil qilgan. Bu yerda bu antitezalarni qo'llash orqali shoir o'z ichki kechinmalarini keltirib o'tishga harakat qilgan. Bundan tashqari, ushbu antitezalar qo'llanilishi ma'no kuchaytirish uchun ham xizmat qilgan.

Abdulla Oripov "Ayriliq qo'shig'i" she'rida ham antitezalardan mahorat bilan foydalangan:

*Shunda, ey, xotirot, zahar tilingni,*

**Shirin damimizga qo'shmagin faqat.**

*Bemahal uyg'onib yo'qolgan ishqim,*

*Shoduman qalbimni bukmagin faqat.*

Ushbu misralarda xotirotning tilini zaharlilagini ijodkor o'zining shirin damiga zidlab she'nda o'ziga xos emotsiyal-ekspressivlik hosil qiladi.

Ijodkor "Etgali" radifli g'azalida yor obrazni orqali ruhiy holatlarni – muhabbat iztiroblarini ziddiyatlari holatda aniq va jonli ko'rsatib bera olgan.

*Bog'sari chiqmas edi, chiqdi bu kun u qasd ila:*

*Yo'lida mushtoqlarin yo yo'g'u, yo bor etgali.*

Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, Abdulla Oripov oltmishinchi yillardan boshlab g'azal janrida ijod qilishni boshladi. Uning aruzda bitilgan g'azallarida zidlanishlarning o'ziga xos usulda qo'llanganini sezish qiyin emas. Yuqorida ko'rgan g'azalimizda ham buning yorqin namunasini ko'rib o'tishimiz mumkin.



Abdulla Oripov "Ayol" she'rida kelinchakning ichki kechinmalarini, ruhiy holatini ziddiyatlariga asoslanib yoritib beradi.

*Sevgidan yetimu umrdan yarim,  
Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak.  
Abadiy firoqni, hayhot, do'stlarim,  
Abadiy visol deb bildi kelinchak.*

Ushbu misralar bizga mash'um ikkinchi jahon urushi davri ayollarining ruhiy holatlarini, iztiroblarini, vafolarini eslatadi. Hammamizga ma'lumki, ular totgan iztiroblar yuki juda og'ir edi. Ijodkor bularni ochib berishda o'ziga xos antitezalardan unumli foydalangan.

Tahlillardan ko'rindiki, Abdulla Oripovning poetik olamini aniq tasvirlab beruvchi falsafiy mazmundagi bu ijodlari zamirida ziddiyatlar ifodalangan va bular shoir ichki kechinmalari, ruhiy holatlarini yoritib berishda asosiy unsur vosita sifatida qo'llanganini ko'rishimiz mumkin.

### Foydalanaligan adabiyotlar

1. S. Mirzaev. S. SHermuhammedov. Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixi.
2. A.Oripov Birinchi muhabbatim.
3. A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov Hozirgi o'zbek adabiy tili.
4. Internet saytlari.



## ADIB CHO'LPON ASARLARIDA TASVIRIY IFODALARNING QO'LLANILISHI

**Qulmurodova Shahodat Saparovna**

Navoiy viloyati Karmana tumani

13-son mакtab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy ifodalar haqida va Cho'lpon asarlarida tasviriy ifodalarning qo'llanilishi haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy ifodalar, Cho'lpon, Kleopatra, metafora, sinekdoxa.

Tasviriy ifodalar – predmet, voqeа va hodisalarning o'z nomi bilan emas, balki ularning xarakterli belgi-xususiyatlarini tasviriy usul orqali ifodalash jarayonidir. Masalan, oq oltin – paxta, oq oltin ijodkorlari –paxtakorlar, kumush tola – pillа, zangori kema kapitanlari – mexanizatorlar va hokazo.

Tasviriy ifodalar uslubiy vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lug'at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takrorlardan, qaytarilardan qochish imkonini beradi, notiqni so'zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy ifodalar faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olg'a qadam qo'yishiga to'sqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish, ulardan kulish va ularga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlatalidi. Binobarin, tasviriy ifodalar, predmet, voqeа hodisalarning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

Iste'dodli ijodkor, shoir, yozuvchi va dramaturg Cho'lpon ijodi barchamizga yaxshi tanish. Doim ozodlik, erk deya yashagan shoir qator asarlarida hurlikni talqin etdi. Shu bilan birga haqiqiy ijodkor sifatidagi mahoratini ham ko'rsatadi. Yozuvchi sifatida obrazlar ko'lami, lirik qahramon va ijtimoiy muhit ziddiyati bilan bog'liq masalalarni teran mushohada etgan. Ayniqsa, asarlarida turli o'xhatishlar, tasviriy ifodalar, frazeologizmlar hamda turli takrorlardan foydalanadi. Cho'lponning "Qor qo'ynida lola" nomli hikoyalari to'plamida "Kleopatra" nomli hikoya bo'lib, ushbu hikoyada yozuvchi tasviriy ifodalarning eng sara namunalaridan foydalangan. Cho'lponning dunyoqarashi va ijodiyoti qanchalik murakkab, nechog'li ziddiyatlari bo'lmasin, san'atkorlik bilan yaratgan tasviriy ifodalari asar mazmunini ochib berishda va asarni o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazib berishida katta ahamiyat kasb etadi.

So'z ma'nolarining kengayishi va ko'chgan holda qo'llanishi tilning, ayniqsa, lug'at tarkibining boyligini oshiruvchi omillardan biridir. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash lug'at boyligini ko'rsatuvchi, uslub ravonligi, ifoda mazmundorligini ta'minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vositadir. "Kleopatra" hikoyasidagi bosh obraz – Kleopatrani ta'riflay turib yozuvchi juda chiroyli tasviriy ifodalardan foydalanadi va asar mazmunini ochib berishda bu parafrazalar katta o'rн tutadi. Masalan,

*Misr tangrisi – Kleopatra*

*Nilning malikasi – Kleopatra*

kabi tasviriy ifodalar Kleopatra uchun juda mos tanlangandir.

Ba'zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo'llanishi mumkin. Hikoyada Kleopatraga eng yoqqan gullar bu nilufar gullardir. Yozuvchi shu gullarning nomini aytayotganda ham bitta nilufar guli uchun bir nechta tasviriy ifodalarni qo'llaydi:

*Vafo hidli gul – nilufar*

*Nil suvi bilan o'sgan gul – nilufar*

*Ko'z yoshda bitib, ko'z yoshda o'sgan gul – nilufar*

*Sevgi chechagi - nilufar*

So'z ustasi bo'lgan Cho'lpon tasviriy ifodalardan foydalana turib, ayrim kesatiq, piching so'zlardan ham foydalanadi. Ayniqsa, bu Kleopatraning ta'rifida yaqqol ko'zga tashlanadi: *Sengina, sen – firavn qizi, dahshatli fir'avnning yumshоq qizi – uyg'onding*. Ushbu parchada "dahshatli fir'avnning yumshоq qizi" tasviriy ifodasi Kleopatraga nisbatan kesatiq ma'nosida qo'llangan.

Shuningdek, yozuvchi toponimlar va gidronimlar nomini keltirayotganda ham qator tasviriy ifodalardan foydalanadi va o'zining mahoratini yana bir bor isbotlaydi. Cho'lpon asarda Misr toponimini keltirib quyidagicha parafraza ishlataladi:



*Sirlar-u yashirinliklar uysasi bo'lgan joy – Misr*

*Ilondek buralib yotgan joy – Misr*

Cho'lpon hikoyada gidronimlarni keltirganda ham parafrazalardan unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Bu Nil va Amudaryo nomlarini keltirganda yaqqol ko'zga tashlanadi:

*Oppoq oqarib, dala o'rtasida ilondek buralib yotgan daryo – Nil*

*Mutakabbir, semiz, dahshatli daryo – Amudaryo*

So'z ma'nosining ko'chish yo'llari metafora, metonomiya, sinekdoxa va vazifadoshlikdir. Tasviriy ifodalar hosil bo'lishida ushbu usullarning ahamiyati katta. Masalan, quyidagi tasviriy ifodalardan foydalanim yozuvchi hikoyada o'ziga xoslik yaratadi: Narigi dunyo – go'riston (metafora); Bir to'plam halokat – imperatorning hashamatli saroyi (metafora); Sirlar- u yashirinliklar uysasi – Misr (sinekdoxa) kabilarda muayyan narsa-predmetga va joy nomlariga xos belgining nomi boshqa narsa-predmetdagi, joy nomlaridagi belgiga nom sifatida ko'chirilgan. Shunga ko'ra, tasviriy ifodalar hosil bo'lgan.

Jamiyat taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan yangi predmet, tushunchalar har doim ham yangi so'zlar orqaligina ifodalanmay, balki predmetning ma'lum belgi xususiyatlarini, o'ziga xos tomonlarini ochib beruvchi so'z ma'nolari orqali ham tasvirlanadi. Shunga ko'ra, so'z ma'nolari ko'chadi, kengayadi yoki torayadi. Demak, tasviriy ifodalar so'z ma'nosini kengaytirish, predmetlarni boshqacha nom bilan atash uchun xizmat qiladi. Cho'lpon ijodida qo'llangan tasviriy ifodalar esa barchamizga tanish bo'lgan narsalarni ma'lum sifat belgilari bilan ifodalab, yanada asarlariga jozibadorlik, go'zallik va ko'tarinkilik baxsh etadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Cho'lpon. Qor qo'ynida lola.
2. Sh. Shoabduraxmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDA AYOL OBRAZI

Dilnoza Murotova Otabek qizi

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti

o'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi 1-bosqich talabasi

+998908332701

murotovadilnozaxon@gmail.com

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Oripovning ijodidagi badiiy mezonlar tahlil qilingan. Abdulla Oripov she'riyatidagi ayollar obrazi talqin qilingan.

**Kalit so'zlar:** she'riy tafakkur, vafodorlik, sodiqlik, sadoqat, poetik manzara;

Ayol deganda ko'z oldimizda vafo, sadoqat xislatlarini o'zida mujassam qilgan nafis xilqat gavdalanadi. Yana kimlardir kuyunchak va mehribon onani ko'z oldiga keltiradi.

Zabardast shoirlarimizdan bo'lmish Abdulla Oripov ijodida ayol obrazi o'zining soddaligi, hech qanday bo'yog va mubolag'alarsiz ochib berilishi bilan xarakterlanadi.

Jumladan, urush yillaridagi butun bir millat ayollarining vafodorlik, turmush o'rtog'iga sodiqlik kabi eng bebaho xislatlarini ochib bergen, sadoqat madhiyasiga aylanib ulgurgan "Ayol" she'riga murojaat qilsak:

*Yigitlar maktubin bitganda qondan*

*Kelinlar firoqdan chekkanda yohu*

*Uning ham panohi qaytmadi jangdan*

*O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u.*

She'r mana shunday ta'sirli jumlalar bilan boshlanadi. Shoир nimaga asoslanib ayolni ulug'lash kerakligiga o'ziga xos isbot, hayotiy misol keltiradi.

19 yoshli beva. Biroz o'ylantiradigan, tasavvurimizga sig'maydigan holat. Turmush qurban, lekin baxt nimaligini his qilmagan, sevgidan yetim ayol. Turmush o'rtog'idan faqat qaynoq xotiralar yodgor qolgan.

N.Hudoyberganov ushbu she'rni o'zining "Baxt va muhabbat" nomli maqolasida "Fidoyilik o'lган odam uchun baxtini qurban qilish - asketizm va fotolinning ko'rinishlaridan biridir" - deya talqin qilgan.

Aslida esa bu baxtni qurban qilish emas, o'zbek ayollariga xos bo'lgan vafo va sadoqatning go'zal namunasidir.

Jumladan, yuqoridagi fikrga adabiyotshunos Maqsuda Ergasheva tadqiqotlarining birida: "Fidoyilik hech qachon tarki dunyochilikka olib bormaydi. Agar yordan ajralganlarning hammasi bir umr yoriga sodiq qolmoq uchun beva o'tsalar ham dunyo bundan ziyon ko'rmaydi. Balki bevafo beturqlar jabridan ruhi majruh, qalbi xasta bo'layotgan, "sadoqat satridan nolib", "nadomat komida" qolganlar aybi bilan dunyoga kelib tirik yetim bo'layotganlar kamayar edi, qo'yingki, dunyomiz ma'naviy jihatdan poklanar edi.

Vafo, sadoqat, fidoyilik eskirmaydigan ming yillar o'tsa ham o'z bo'yog'ini yo'qotib qo'yagan eng bebaho tushunchalardir.

*Shu sodiq bevaga sajdalar qiling*

*Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.*

She'rning tili ravon hamda xalqchil. Shoир she'rlarida fikr yalang'och ifodalanadi. Poetik manzaralar yaratish hamda gumon nasihat qilish ham yetakchilik qiladi.

Mening fikrimcha, Ona siyomasini qalamga olishda XX asr o'zbek adabiyotida A.Oripovga teng keladigani yo'q. Ba'zi shoirlar onani ko'kka ko'taradi, ba'zi shoirlar balandparvoz so'zlar bilan ulug'laydi. Abdulla Oripov esa ayolni, onani boricha hayotiy misollar orqali tasvirlaydi. Shoир she'rlarning o'lmasligi ham shundadir.

"Onajon" she'ri ham yuqoridagi fikrimni tasdiqlaydi. Shoир onasi Turdi Karvon qizi xotirasiga bag'ishlangan ushbu she'rda lirik qahramon shoirning o'zi:

*Keltirarlar goho beshik*

*Ko'zlarida hayajon.*

*-Yotar payting bo'ldi-ku,- der;*



*Kelaqol der bolajon.*

*Yoki:*

*Garchi fano bir kimsaga*

*Azaliy bir qismatdir*

*Lekin ona tiriklik ham,*

*Bilsang yarim hikmatdir.*

Shoir ma'lum ma'noda asos slogan "o'zbek onanomasi" dagi ona obrazi munis, mushfiq, o'zi aytgan allalar ohangidek inson qalbini ezgulikka chorlaydigan obrazdir.

*U kun chetda oh chekardim*

*G'ussalarning dastidan*

*Sen otamga pul beribsan*

*Yostig'ingning ostidan.*

Hayotning so'nggi daqiqalarini kechirayotgan onaning bu cheksiz armonli saxovatidan jon-u jahoni o'rtangan farzandning minnatdor iztirobini bundanda iztirobli, bundanda kuchli samimiyyat bilan ifodalash mumkin emas.

*Balki sening qabring uzra*

*Ko'karganda gulchechak*

*Ostonamga qadam qo'yari*

*Men istagan kelinchak.*

Shoir onasi farzandining baxtini ko'rolmasdan kelini bilan o'g'lining nurafshon hayotiga guvoh bo'lmasdan, dunyodan ko'z yumyapti. Abdulla Oripov sodda, kuyunchak, munis, onasining siyimosini yaratara ekan, ezgu xotirasini ulug'lar ekan, u ona - jahonga buyuklarni bergen jamiki onaizorlar obrazini yaratdi. Uch qismidan tashkil topgan mazkur she'r onalar haqida yozilgan madhiya bo'lib jaranglaydi.

Sir emaski, onalar haqida yozilgan she'rlar bisyor. Lekin shoir Abdulla Oripov nafaqat o'z onasi, balki butun dunyo onalari haqida mana shunday go'zal misralar bitganki, chinakam iste'dod sohiblarigina bu ishni o'quvchining tuyg'ulariga ta'sir qiladigan darajada sof, samimiyy va haqqoniy yozishi mumkin. Abdulla Oripov xuddi shunday buyuk so'z san'atkori hamdan inson qalbining payvandchisidir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.

2. Maqsuda Ergasheva. Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. M.Ergashevning diplom ishi.

3. Abdulla Oripov. Onajon. - Toshkent, 1969.

4. N.Xudoyberganov. Cho'qqilar chorlaydi. - G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti Abdulla Oripov she'rlarida ayol obrazi Toshkent, 1979 – yil, 28-avgust.



## CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDAGI MIRYOQUB OBRAZI

Sayitqulova Zilola Husniddin qizi

Samarqand shahar 32-maktab

ingliz tili fani o'qituvchisi

zilola.sayitqulova@gmail.com

+998993103728

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada A.Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asaridagi uddaburon qahramon Miryoqubga o'zbek romanchiligiga kirib kelgan yangi qahramon sifatida qaralib, uning ishbilarmonligi, topqirligi, zamondoshlaridan farqli o'laroq fikrlovchi zukko insonligi asardagi parchalar orqali tahlil etilgan. Asosiy e'tibor Miryoqub hayotidagi poyezd voqeasiga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy voqelik, real voqelik, Miryoqbuning uddaburonligi, poyezd;

"Kecha va Kunduz" romanidagi badiiy voqelik real voqelikning oddiygina aksi emas, u adibning dunyoni anglash yo'lidagi izlanishlari sifatida yuzaga kelgan, yaxlit ma'no asosida anglangan mohiyatning modelidir [2: B.333]. Adib asar g'oyasini ochib berishda, o'sha davr muhitining muommolarini ko'rsatishda va o'sha muommolarni yechishiga umid bog'lagan, o'zbek adabiyotiga yangi qahramon sifatida kirib kelgan obraz bu Miryoqub obrazidir. Miryoqub nafaqat aqli, ishbilarmon, chaqqon balki, u zukko fikrlovchi inson hamdir. XX asr boshlarida Turkiston zaminida bunday insonlarni uchratish juda qiyin edi. Professor, O.Sharafiddinov bu obraz haqida to'xtalib: "Miryoqub obrazining ziddiyatlari qirralarini belgilagan narsa shundaki, u, bir tomonidan yangicha burjua odamiga xos sifatlarga ega, ammo o'z muhitidan butunlay uzilib ham ketgan emas" [5] deb yozadi.

Jumladan, Noyib to'raning Miryoqubga "*- Sen xuddi bir amerrikalikka o'xshaysan, Miryoqub! – Lekin ko'nglinga og 'ir olma, chakki shu sartiya ichida tug'ilib qolgansan!*" [1: B.70] deya uni alohida e'tirof etgan gaplari ham bejiz emasdi.

U bir gal noyib to'raning uyida noyib to'ra va injener o'rtasidagi suhbatda o'zini go'yo yo'qdek tutib, rasmga to'la kitobni bitta-bitta varaqlab turgan chog'ida, uning qulog'i "avrashga tushgan ilonday" dikkayganini hech kim payqamagan edi. Uning qulog'ini dikkaytirgan narsa bu uning millatiga xos bo'lgan haqoratomuz so'zlar emas, balki, poyezd yo'lining tushishi edi. Suhbatdoshlari esa uning qulog'ini dikkaytirgan bu so'zлarni go'yo uning xalqiga aloqasizdek qarab, Miryoqub haqida butunlay unutdilar. U poyezdning qayerlardan o'tish joylarini bilib olgan va miyasiga joylashtirgan edi. Bir oy ichida u o'sha poyezd keladigan yo'l bo'yalaridan noobod, suvsiz, tashlandiq yerlarni arzimagan pulga sotib oldi. Poyezd yo'li qurilishiga ijozat olgan shirkat tayyorgarlikka kirishgandan keyingina, Miryoqub noyib to'raga qilgan ishlari haqida aytdi. Shunda noyib to'ra uning aqliga qoyil qolib, uni o'sha paytlarda qoloq yurt sifatida qaralgan "sartiya" ichidan ajratib, go'yo bir amerikalikka qiyosladi.

*"Poyezd o'tgandan keyin, bir necha yil orasida Miryoqbuning qo'lida juda oz yer qoldi, hammasi har kimga o'tib ketdi. Miryoqub yerni uncha sevmaydi, yer qo'ldan chiqsa, xafa bo'lmaydi. Shuncha yer qo'ldan chiqqan bo'lsa, uning baravariga qancha davlat qo'lga kиргандир, мунি xudo biladi-yu xudoning sevimli bandasi qorako z Miryoqub biladi!.. "[1: B.71]*

Miryoqbuning ishbilarmonlarcha qilgan bu harakatlari uning o'z zamonasida yangi qahramon ekanligini ko'rsatish bilan bir qatorda, uning uzoqni o'ylaydigan, arqonni uzun tashlaydigan inson ekanini ham ko'rsatadi. U boshlagan ishini har jihatdan puxta o'ylaydi, oz sarf bilan ko'p foyda ola biladi. Ish masalasi uning hayotining mazmuniga aylangan bo'lib, yurgan yo'lida ish haqida o'ylaydi. Uning yerni sevmasligi, yer qo'ldan chiqqanda xafa bo'lmasligi o'sha yerda mehnat qilishdan ko'ra uni boshqalar hisobidan boshqarishni, sarmoyasini bir yerda ushlab turmasligini ko'rsatadi. U kerakli odamlar bilan muomalaga kirisha oladi, ulardan o'z moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadi. U tashlandiq cho'lda ariq o'tkazish va suv chiqarish ishlarini Akbarali mingboshi hisobidan qilishi buni yana bir bor dalillaydi. U qo'lga kiritgan davlatni o'zi va Xudodan boshqa hech kim bilmasligi, uning sirlilagini ko'rsatish barobarida, muallif asar boshida ta'kidlagandek, uning qiyofasiz holda namoyon bo'lib ish bitirishini ham bildiradi.

Miryoqub shu qadar ustasi farang ya'ni yangi tipdag'i savdogarki, u foyda manfaatdorlik yo'lida hech nimadan qaytmaydi. O'zi iqror bo'lganidek, Noyib to'raning xotini, yohud mingboshining ikkinchi xotini Poshshaxonga o'ynash tutilishidan ko'zlangan maqsadi nihoyati "ayshini surib



yashash" emas, balki shu yo'1 bilan ham foyda undirishdir: Noyib to'rani yanada mahkamroq qo'lga olish, mingboshi merosining loqal bir qismiga ega chiqish![3: B.176] U Akbarali mingboshi xarakterini juda yaxshi biladi, uning ishonchiga kirish orqali uning davlatidan keragicha foydalangani kamlik qilgandek, uning vafotidan keyin ham uning merosiga ega chiqishni xohlaydi. Bu yo'lda juda puxta reja tuzadi va o'z rejasi bo'yicha og'ishmay harakat qiladi. Noyib to'raning xotiniga yaqinlashish orqali, noyib to'rani va uning millatdoshlarini, ularning asl basharasini, jirkanch botqog'iga botganini ko'rib, ularga bo'lgan ishonchi va e'tiqodi sinadi, javobsiz so'roqlar girdobida qoladi. O'zining murakkab jumboqlariga javob izlaydi va savollari javobi hamda yechimini poyezdda uchratgan yo'lovchi Sharafuddin Xodjayev orqali topdi.

Muallifning yana bir maxorati shundaki, u Miryoqubning boshqa sohadagi ishbilarmonliga emas balki, poyezd to'g'risidagi qismiga batafsil to'xtaladi. Miryoqub poyezd kelishidan birinchilardan bo'lib (o'z xalqidagi kishilarga nisbatan) xabar topadi. U yaratilgan imkoniyatlarni qo'ldan chiqarmaydi, ulardan ustalik bilan foydalanadi. Asar so'ngida yana o'sha poyezdgaga minadi, o'sha poyezd orqali savollariga javob topadi, o'zligini anglay boshlaydi. Bilamizki, "Kecha va Kunduz" romani diologik roman. "Kunduz" qismi topilmagan. Ehtimol, unda Miryoqub yangi qiyofada gavdalanadi, asar boshida sartlarga past nazar bilan qaralishiga, ularni kamshitilib, haqoratlanishiga e'tibor qilmagan Miryoqub, endi bunga befarq bo'lomas... Poyezd so'zi roman voqealarini birlashtirishi, bir-biriga bog'lashi adibning so'z qudratini va mohiyatini chuqur anglashini, uni mohirlik bilan qo'llashida ham yana bir bor namoyon bo'ladi.

Qahramonning dunyoqarashiga munosib xarakterni topish o'ta murakkab vazifa. Buning uchun muallif hayot mantig'i va mohiyatini chuqur bilishi kerak bo'ladi. Va bu asarning yanada qiziqarli va ixcham bo'lishiga yordam beradi. "Shu ma'noda dialog mahorati yozuvchi iste'dodining, uning hayotni qay darajada chuqur bilish va inson tabiatini zukkolik bilan his qilishni ochib ko'rsatuvchi zargarlik kalitidir" [4: B.141]. Yozuvchi, A. Cho'lpon ham o'z qahramoni ruhiyatini shu darajada chuqur anglay olgan va buni Miryoqub va Akbarali, Miryoqub va noyib to'ra o'rtasidagi diologlarda ustalik bilan aniq, ravshan namoyon eta olgan.

Xulosa qilb shuni aytish mumkinki, Miryoqub zamona zaylini chuqur anglagan, uning ichki imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalana oladigan, shamolning qaysi tomonga esishiga qarab ish tutadigan, ezgulik va tubanlik o'rtasida harakat qiluvchi, dunyoqarashi o'zgargan obrazdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Абдулхамид чўлпон. Кеча ва Кундуз: Роман - Т.: «Янги аср авлоди», 2013 - 332 б.
2. Куронов Дилмурод. Чўлпон насли поетикаси / Маъсул мух. О.Шараффириддинов, У.Норматов. - Т.: «Шарқ», 2004. - 288 б.
3. Отаев Р. Тонг юлдузи шуълалари. - Шарқ юлдузи. - 1989. - Н1. - 208 б.
4. Фафуров И. Гўзалликнинг олмос кирралари. Адабий ўйлар. Т., 1964. - 142 б.
5. Шарафиддинов О. Ўзбек адабиёти ва санъати. Т., - 1990. - 16 – феврал. 8 б.



## АДАБИЙ КОМПЕТЕНТЛИЛИКНИ ШАКЛАНТИРИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР

Юнусова Шохиста Равшановна  
Зангиота тумани 40-сонли мактаб  
бошланғич таълим ўтибдў  
abbos.a\_1990@mail.ru; +998946056183

**Аннотация:** Ушбу мақолада бугунги кунда адабиёт ўқитиш методикасида янги тушунча бўлган адабий компитентлик масаласи ўрганилган. Унда бадиий асарга компитенциявий ёндошувнинг аҳамияти кўрсатилган.

**Калит сўзлар:** Компетентлик, адабий компетенция, методика, таҳлил, бадиий ўқиш, кўнишка, шеър, адабий жанр, бадиий ижод, усул.

Адабий компетентлилик тушунчаси ўзбек адабиётини ўқитиш методикасида янги тушунча бўлиб, бадиий асар моҳиятини тўғри англай олиш, ундан мақсадли фойдалана билиш кўникмаларини шакллантиришга йўналтирилган. “Сомпетенсе” сўзи “то сомпете” сўзидан келиб чиқсан бўлиб, “мусобақалашмоқ”, “рақобатлашмоқ”, “беллашмоқ” деган маънони билдиради.

Демак, компетенциявий таълим самарали бўлиши учун аниқ, мақсадли шаклда ифодаланишилозим. Турлимамлакатларда ўқувчилардакомпетенцияларни ривожлантиришга йўналтирилган таълим тизими яратилган, Жумладан, **Британия мактабларида** олтига таянч компетенциялар асос қилиб олинган. Уларни шартли равишида бир нечта гурухларга бирлаштириш мумкин. Асосий компетенциялар:

- мулоқотга киришиш;
- ҳисоб-китоблар юритиши;
- ахборот саводхонлиги.

Кенг кўламли таянч компетенциялар:

- бошқалар билан ишлай олиш;
- ўқиш ва такомиллашиш малакаси;
- турли масала ва муаммоларни ечиш кўникмаси.

Адабий компетенция тушунчаси мураккаб бўлиб, ўқиш, адабий, кутубхона, библиографик, шахсий ва фаолият турларини ўз ичига олган кўникмалар тизимини қамраб олади. Ўқиши қобилиятига эга ўқувчи - бу интеллектуал маданиятга эга шахс, унда қуйидаги фазилатлар шакллана бошлади:

- бадиий адабиётни ўқиш орқали ўзини интеллектуал фаолиятга айлантириш истаги;
- самарали усулларни ва сифатли ўқиш кўникмаларини билиш;
- матн билан ишлашда дастурий таъминотларни ўқиш кўникмаларини билиш; китоб билан ишлашда мустақиллик; бадиий адабиётни тўлақонли идрок этиши ва илмий ва ўқув матнларини ишлаб чиқиши;
- ўқувчи уфқининг мавжудлиги, яъни асарларнинг адабий намойишлари, муаллифлар, ўқиш мавзулари ва жанрлари.

Ушбу ўқиш қобилиятынинг тақдим этилган қоидалари, шубҳасиз, ўқувчилар учун мухимдир, чунки улар ўқишга онгли эҳтиёжни англатади ва малакали ўқувчини шакллантиради.

Ўқитувчи ўқучиларнинг адабий баркамоллигини шакллантиришда қуйидаги вазифаларни қўяди: ўқувчилар нутқини ривожлантиришга ҳисса қўшадиган адабиёт дарсларида иш билан ишлашнинг шакллари ва усулларини жорий этиши, тематик матн материалларини танлаш, амалий ишлар билан ишлаш усулларини ишлаб чиқиши, талабаларни дарсдан ташқари машғулотларга жалб қилиш, уларнинг ижодий қобилияtlари, лингвистик қобилиятили болаларни аниқлаш.

Бадиий ўқиш дарсларида адабий компетенцияни шакллантириш усулларидан бири ўқувчиларнинг асосий адабий жанрларни тан олишидир. Бунинг учун ўқитувчи ўқувчиларга ўқиш амалиётида асосий жанрларни ажратса олишни ўрганиш учун турли хил машқлар ва усулларни қўллаши керак: дидактик ўйинлар, адабий жанрларни аниқлаш учун викториналар ўтказиш; ўқитувчи уларни турли хил матнлардан парчаларни ўқувчилар томонидан тан олиниши учун ўқийди; адабиётнинг ҳар бир жанри бўйича тематик иш, ҳар



бир жанрнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш; бир нечта жанрларни бир-бири билан таққослаш, уларнинг фарқлари ва ўхшашликларини аниқлаш. Асарлар билан ишлаш, уларни таҳлил қилиш, сабабий алоқаларни ўрнатиш, иш ғоясидан хабардор бўлиш. Мактаб ўқувчиларининг адабий компетентлилигини ривожлантириш ва ёзувчи асарларини ҳиссий-мажозий жиҳатдан идрок этиш учун жуда кўп имконият яратадиган бадиий ва бадиий хикоя қилиш кам самарали усул ҳисобланади. Асарни ёки унинг алоҳида эпизодларини ижодий ҳикоя қилиш усули (муаллифдан, ўзи томонидан, актёр номидан). Бундай ҳикоя ўқувчи-талабаларнинг тасаввурини ривожлантиради.

Давлат таълим стандартида компитентлиликка алоҳида эътибор қаратилган унга кўра:

**Ўқувчилар адабиёт таълимига оид қўйидагиларни билишлари керак:**

- матнни тўғри, тез ва ифодали ўқиш қоидаларини;
- Президент асарларидаги маданий меросга, адабиётга, санъатга оид асосий ғоялар мазмунини;
- мамлакатимиз мустақиллиги ва байрамлари ҳақидаги, она-Ватанга муҳаббат уйғотувчи адабий асарлар мазмунини анлаган ҳолда сўзлаб беришни;

Умуман, адабий компетентлиликни шакллантириш орқали – бадиий асарни шахсий ўқиш ва тушуна олиш қобилияти, асарни унинг қисмлари эмас, балки мустақил ўқиш, адабий асарларда қаҳрамонлар билан тушуниш қобилияти, бадиий асар тилининг ўзига хос хусусиятларини тушуниш, бадиий матнларнинг услубларини фарқлаш қобилиятига эришиши мумкин.

**Адабиётлар:**

1. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўртататилем тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти, Т.: 2015.-8 б

2. Лобан М.Г. Литературоведческая компетенция: принципы, методы, приемы формирования: сб. науч. ст./ Белорус.гос.ун-т, 2009. – Вып. 9. – 102 с.



## ADABIYOT DARSLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Masharipova Qlara Raximovna

Xiva tuman 5-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 152-55-99

masharipovaq.@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yuqori sinflarda adabiyot darslarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, innovatsiya, metod, kompetensiya, komil inson.

Zamonaviy ta'lif an'anaviy o'qitish tizimidan tubdan farq qilishi hech birimizga sir emas. Izlanuvchan va iqtidorli o'qituvchilar kun sayin yangicha ta'lif texnologiyalarini amalda qo'llab, o'quvchilarning bor diqqati va e'tiborini bilim olishga yo'naltirmoqdalar. O'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar, yangicha metodlarni qo'llash ijobiy tasir ko'rsatishi bot-bot ta'kidlanmoqda va amaliyot jarayonida ham bu fikrlar o'z tasdig'ini topgan. Adabiyot fanini o'rgatishda ham o'ziga xos metodlarni qo'llash yosh avlod ongida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilim hosil qilish bilan birga, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda ham juda samarali. Adabiyot fanini o'qitishdan asosiy maqsad – komil inson tarbiyasi. Komillik fazilatlarini yosh avlod shuuriga jo qilishda esa noan'anaviy didaktik o'yinlarning ahamiyati yuqori. Adabiyot darslarimiz davomida "**Men uning o'rniда bo'lsam**", "**Kichik donishmand**" yoki "**Kun donishmandi**", "**Xorijdan maktub**", "**Galereya**", "**Yosh tadqiqotchi**" kabi metodlarni qo'llasak, ko'zlagan maqsadimiz sari yana bir pog'ona yuqorilagan bo'lamiz.

**"Men uning o'rniда bo'lsam"** metodini barcha sinflarda badiiy asar tahlili darslarida qo'llashimiz mumkin. Bunda o'quvchilar o'zlarini asrning qaysidir qahramoni o'rniда qo'yib ko'radilar va uning o'rniда bo'lganlarida qanday yo'l tutishlarini tasavvur qiladilar. Masalan, 5-sinfda Oybekning "Fanorchi ota" hikoyasida sinfdagilarni qatorlar bo'yicha 3 guruuhga ajratib, 1-guruuhga fanorchi ota, 2-guruuhga Ahmat va 3-guruuhga muallif o'rniда qanday yo'l tutushlari mumkinligini so'raladi. Kichik bilimdonlarga qisqa va tez javob berish lozimligi tushuntirib o'tiladi. Bunda ulardan turli-tuman javoblar olamiz. Ushbu metod orqali barchani darsda faol ishtirok qildirish hamda tez fikrlashga o'rgatish mumkin. Bolalarning shaxsiy fikrini tinglash va unga ijobiy munosabat bildirish orqali o'zaro do'stona muhit yaratiladi. Agar ustoz kimningdir aytayotganini xato deb bilsa ham, darrov unga qarshi gapirmasligi, avvaliga mulohazalarini bayon qilganligi uchun rag'batlantirib, fikrlari yaxshi ekanligini ta'kidlagan holda, to'g'ri yo'nalish berishi juda muhim. Chunki, bolalarga ochiqdan-ochiq "Sen xato o'ylayapsan" deyish ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va "Mening fikrlashim xato" degan xulosaga kelishiga sabab bo'ladi.

**"Kichik donishmand"** yoki "**Kun donishmandi**" metodini barcha sinflarda, har qanday darsda qo'llash mumkin. Bunda har kuni bitta o'quvchiga keying dars mazmuniga mos bo'lgan kichik hikmat yoki hadis o'rganib kelish uyga vazifa qilib beriladi va navbatdagi darsning kirish qismi o'sha hikmat bilan boshlanadi. O'quvchilarga yangi mavzu tushuntirib berilgach, yakuniy xulosalar so'raladi. Bunda o'rganilgan dars va kun hikmati izohlanib berilgach, o'qituvchi tomonidan umumlashtirgan holda kundalik turmush bilan bog'lash lozim. Ushbu metod orqali o'rganuvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanadi; adabiy-nutqiyligi va badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalari shakllanadi; hayotiy xulosalarga kelish orqali ijobiy hislar tarbiyalanadi.

**"Horijdan maktub"** metodi iqtidorlilar uchun ayni muddao bo'lib, bunda o'rganilgan mavzu qahramoni, shoir yoki yozuvchiga har kim o'zi o'rganayotgan chet tilida maktub yozishi uy vazifasi sifatida beriladi. Topshiriqni bajarish davomida kattalardan yoki ustozlardan yordam so'rash mumkinligi ham aytib o'tiladi. Bu usul yordamida ta'lif oluvchi nafaqat fikrini bayon qiladi, balki xorijiy til bo'yicha bilimlarini ham mustahkamlaydi. Natijada darsning boshqa fanlar bilan bog'liqligi amalgaliga oshadi.

**"Yosh tadqiqotchi"** metodi ham bilim oluvchilarni topqirlikka va izlanuvchanlikka undaydi. Yangi mavzu oldindan e'lon qilinib, shu mavzu yuzasidan darslikdan tashqari ma'lumot, rasmlar, kitoblar izlash topshiriladi. Dars avvalida topilmalar burchagi tashkil qilinib, materiallar bir joyga



jamlanadi. Izlanuvchilar "yosh tadqiqotchilar" sifatida rag'batlantiriladi. Bunda turli nishonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, men ushbu metoddan asosan quyidagi nishonlardan foydalanaman: "Eng ilg'or tadqiqotchi", "Eng qiziq tadqiqot egasi" va "Eng noyob tadqiqot egasi". Ushbu usul keljakda qilinadigan ilmiy ishlarga kichik tayyorgarlik vazifasini o'taydi. Bolalar mustaqil izlanishga o'rganadi. Darslarning qiziq va zavqli bo'lishini ta'minlaydi.

"**Izohli test**"da o'quvchilar test javobini oldilaridagi javob yorliqlari orqali ko'rsatadilar, agar xato bo'lsa, to'g'ri javobini izohlab, ilmiy dalillashadi. Bunda nafaqat to'g'ri javob, balki ba'zan noto'g'ri javoblarni ham izohlash talab qilinadi.

Masalan quyidagi testni ko'raylik:

"*Oygul bilan Baxtiyor*" dostonida xalq qo'zg'onliga kim rahbarlik qiladi?

A) Tarlon B) Darxon C) Baxtiyor D) Oygul

Bunda faqat javob aytilmasdan, har bir qatorda berilgan qahramonning kim ekanligi to'liq izohlanishi kerak. Testning mazkur turi bilim oluvchilarning nutqini va ilmiy dunyoqarashini oshiradi. Testni taxminiy emas, ongli tarzda belgilashga undaydi.

Yuqoridagi kabi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish har bir darsimizni qiziqarli va unutilmas qilishiga shubxa yo'q. Qaysi usulda bo'lsa ham maqsadimiz bitta – ta'lim sifatini oshirish, adbiyot ixlosmandi bo'lgan ezgulikka oshufta qalblarni tarbiyalash. Zero yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi". Shunday ekan, adabiyotga muhabbatni uyg'otish va yuksaltirish uchun yangicha usul-u yo'nalishlar yaratishdan aslo to'xtamaylik, aziz ustozlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -Toshkent, 2006.
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent, 2005.



## ABDULLA ORIPOV - NOYOB ISTE'DOD EGASI

**Nuriddinova Nozima Avazxonovna,**

Namangan viloyati XTXQTMOMH Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

**Rustamova Lobarxon Ibragimovna,**

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman 1- umumiy o'rta ta'lif maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

nuriddinovanozimahon8@gmail.com/tel: +998 90 2196744

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoirning hayoti va ijodi, kelajak avlodlar uchun qoldirgan boy adabiy merosi hamda Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash va xotirasini abadiylashtirish borasidagi ezgu ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** shoir, xotira, taniqli, ijodi, muallif, jamoat arbobi, tavalludi

El-yurtini sevgan, uning taraqqiyoti va farovonligi uchun sidqidildan xizmat qilgan farzandlarni tarix ham siylaydi. Xalqimizning tinch, to'kin va barqaror hayoti, yorug' kelajagi yo'lida kurashgan insonlar nomi haqli ravishda abadiyatga daxldordir. Adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish adiblarning adabiy merosini sinchiklab o'rganish ular ilgari surgan g'oyalarni tahliliy nazardan o'tkazish bilan ham bog'liq. Prezidentimiz e'tirof etganlaridek, xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatuvchi adabiyot odamlar qalbiga yo'l topish va ularni ezga maqsadlar sari ilhomlantirishda ta'sirchan kuch ekanini bilish va anglash kishi diliga huzur baxsh etadi. Bu jihatlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 2 dekabrdagi qarori bilan O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli shoir, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash va xotirasini abadiylashtirish borasidagi ezgu ishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ma'lumki, Abdulla Oripov 60-yillarda Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva singari ijodkorlar bilan bir qatorda o'zbek adabiyotiga kirib keldi. U hozirgi davr o'zbek she'riyatida inson qalbidagi murakkablik, haq-nohaqliklarni, adolat-razolatni teran va haqqoniy, o'ziga xos betakror kuylagan ulkan ijodkordir. Shoir ijodining ilk davridan boshlab o'z uslubi va o'ziga xos yangroq ovozi bilan she'riyatimizda yangilik yaratib ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb etdi.

Abdulla Oripov - noyob iste'dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she'riyati asoslarini tashkil etadi. O'zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she'riyati katta o'rinn tutadi.

O'zbekiston xalq shoiri, taniqli jamoat arbobi Abdulla Oripov 1941 yili Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida dunyoga keldi. O'rta maktabni 1958 yili oltin medal bilan tugatgach, Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistikada bo'limiga kirib, uni 1963 yili muvaffaqiyat bilan bitirdi.

Abdulla Oripovning ijodi talabalik yillarda boshlangan bo'lib, uning birinchi she'rlar to'plami «Mitti yulduz» 1965 yili chop etilgan. Keyin shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1967), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1971), «O'zbekiston», «Qasida» (1972), «Xotiro» (1974), «Yurtim shamoli» (1974), «Hayrat» (1979), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983) she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Mazkur to'plamlarga kirgan she'rlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda shoirning she'rdan-she'rga, to'plamdan-to'plamga, yildan-yilga o'sib, ijodi barkamollashib borganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, 70-yillardan keyingi asarlarida hayot va inson, jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy mushohadalarining tobora chuqurlashib borayotganligi seziladi. Kuchli ehtirosli tuyg'ular ularda o'zining yuksak talqinini topib boradi. Bu, bora-bora teran fikr bilan yuksak badiiylikning omuxtasiga aylanib, shoirning ijodiy kamolotga erishganidan darak beradi. Bunga Abdulla Oripovning «Saylanma» (1996) to'plamini o'qib amin bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa, istiqlol g'oyasi, el-yurt mustaqilligi, ona Vatanni ozod va obod ko'rish istagi satrdan-satrga parvarish topib, ajib bir porloqlik hosil qiladi. Shoirning «Men nechun sevaman O'zbekistonni», «O'zbekistonda kuz», «Kuz» kabi 60-yillarda yozilgan she'rlaridayoq istiqlol nurlari jilva qilgandek bo'ladi.

Xullas, Vatan va xalqqa mehr-muhabbat, tabiatni sevish, ardoqlash, imonli, vijdonli insonlarga madhiyalar o'qish, goh yig'lab, goh quvonib kuylash shoir tuyg'ulari ummonini tashkil etadi.



Abdulla Oripov she'rlarini ona Vataniga bag'ishlaydi.

Qashqadaryo viloyatida Abdulla Oripov xotirasini abadiylashtirish bo'yicha yirik tadbirlar o'tkazildi. Uning nomi bilan ataladigan markazlar, ijodiy maktablar tashkil etildi. Qarshi shahrida Abdulla Oripovning 1992-2016 yillarda yashagan Qarshi shahridagi uyi peshtoqiga ijodkorning byusti va yodgorlik lavha o'rnatildi.

Ta'kidlash lozimki, 2018 yil davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qarshi shahri markazida Abdulla Oripov nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internati faoliyat boshladi. Maktabda tashkil etilgan xiyobonda shoir haykali qad rostladi. Shuningdek, maktab negizida adibning barcha asarlari va boshqa ijodkorlarning kitoblaridan iborat kutubxona va muzey tashkil etildi. 2019-yil 9-maydan boshlab har yili Abdulla Oripov xotirasiga bag'ishlangan «GOLDEN WORD» xalqaro adabiyot festivalini o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning ijodini bilmagan, uning she'rlarini yod olmagan biror bir yurtdoshimiz hamda kitoblari kirib bormagan biror o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak. Atoqli shoir umr bo'yni ona Vatanimizni, istiqlolimizni, ezgulik g'oyalarini tarannum etib, xalqimiz qalbidan haqli ravishda joy oldi. O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to'g'risida" PQ-4906-son Toshkent sh., 2020-yil 2-dekabr,

2. Mirqosimova M., Atamurotova R. Ta'lim bosqichlarida A.Oripov hayoti va ijodini o'rganish. -T., 2012.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(8-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000